

2025-yil bahorgii attestatsiya imtihonlarida tushgan savollar va test tuzilayotgan asosiy mavzular asosidagi maxsus to‘plam.

Muallif: ZAXIRIDDIN JUMANAZAROV

1. Tasvir (Illyustratsiya) metodi

Tasvir metodi narsa, hodisalar va jarayonlarni ularning ramziy ko‘rinishlari yordamida ko‘rsatish usulidir. Bu metodda o‘qituvchi chizmalar, rasmlar, fotosuratlar, modellardan foydalaniib, o‘quvchilarga o‘rganilayotgan materialni tushuntiradi. Bu metod nafaqat tushuncha, balki tasavvurni ham rivojlantiradi.

2. Namoyish (Demonstratsiya) metodi

Namoyish metodi o‘rganilayotgan obyekt harakatining dinamikasini ochib berishda qo‘llaniladi. Bu metodda obyektlarning tashqi ko‘rinishi va ichki tuzilishini ko‘rsatish orqali ma’lumot beriladi. Bu metod ko‘pincha tabiiy obyektlarni yoki murakkab jarayonlarni o‘rganishda qo‘llaniladi.

3. Amaliy Metod

Amaliy metod o‘quvchilarning nazariy bilimlarini amaliyatda qo’llashni taqozo etadi. Bu usul o‘quvchilarga o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliy masalalarini hal qilishda qo’llashga yordam beradi. Sinfda yoki tabiiy sharoitlarda amalga oshiriladigan amaliy ishlar orqali o‘quvchilarning ko‘nikmalari rivojlanadi.

1. Texnologiya darsida o‘qituvchi elektr zanjirini ulab, lampochkaning yonganini ko‘rsatdi. So‘ng zanjirni uzib, nima uchun lampochka yonmaganini so‘radi. Bu ta’limda qanday usul hisoblanadi?

- A. Laboratoriya ishi
- B. Amaliy ish
- C. Namoyish usuli**
- D. Ta’limda amaliy metod

2. O‘qituvchi darsda doskaga do, mi, sol notalarini chizdi, so‘ng pianinoda ularni sol, mi, do tarzida chalib berdi. O‘quvchilar xatolikni darhol sezib, uni to‘g‘rilashdi. Ushbu holatda o‘qituvchi qaysi metoddan foydalangan?

- A) Namoyish
- B) Loyiha
- C) Didaktik o‘yin**
- D) Hikoya

Nizolarni hal qilishning pedagogik usullari:

1) Suhbat

Suhbat — bu nizo yoki ziddiyatlarni muhokama qilish va yechim topish uchun muloqotda bo‘lish.

2) Iltimos. Iltimos — bu o‘quvchilarni noxush vaziyatdan chiqish uchun muloyim va inoyatli tarzda faoliyatga undash.

3) Ishontirish

Ishontirish — bu o'quvchilarga o'z fikrini qabul qilishga undash, ularni biror fikrga ishontirish va shu orqali nizo hal etish.

4) Nizoga kirishuvchilarga qo'yiladigan talablar yoki ishtirokchilarining xatti-harakatlarining noto'g'rilagini tushuntirish

Nizoda ishtirok etayotgan o'quvchilarga ularning xatti-harakatlari yoki fikrlari noto'g'ri ekanligini tushuntirish, nizo tugatilgandan so'ng, bu xatolikni bartaraf etishga yordam beradi.

Nizolarni hal qilishning ma'muriy usullari:

1) Nizoga kirishuvchilar manfaalarini kuch bilan bostirish

Bu usulda nizoni kuch orqali, qo'llaniladigan hukm yoki nazorat yordamida hal qilishga harakat qilinadi. Bu usulda muammoni qat'iy va hech qanday muhokamasiz qator qaror qilib qabul qilish

2) Ularni boshqa ishga o'tkazish

Bu usulda nizoda ishtirok etayotgan shaxslarni alohida joyga yoki ishga o'tkazish orqali nizoni tinchlantirishga harakat qilinadi.

3) Nizo qatnashchilarini turli ko'rinishlarda o'zaro ajratish

Bu usulda nizoga kirishuvchilarni alohida joylash yoki o'zaro ajratish orqali ularning harakatlariga qarshi chora ko'rildi.

4) Axloq komisiyasining qarori

Axloq komissiyasi odatda nizolarni hal qilishda adolatli qaror chiqaradigan organdir.

O'quvchilarni xatti-harakatlariga qarab ta'lif jarayoniga ta'sir qiluvchi qarorlar qabul qiladi.

5) Rahbar buyrug'i

Rahbarning qarori yoki buyruqlari orqali nizolarni hal qilish, ko'pincha yuqori lavozimdagи shaxslarning to'g'ridan-to'g'ri aralashuvini talab etadi.

6) Sud qarori

Agar nizo yuridik darajaga o'tsa, sud orqali rasmiy qaror chiqariladi. **Bu usul asosan o'ta jiddiy, murakkab va zo'ravonlik bilan bog'liq bo'lgan nizolarni adolatli hal etishda qo'llaniladi.**

Test: (ushbu mazmungi testlar imtihonda tushmoqda)

1. Ikkii o'quvchi o'zaro tortishib, dars vaqtida janjallashib qoldi. Pedagog vaziyatni o'nglash uchun tezkor chora ko'rishi kerak.

Qaysi yechim vaziyatni samarali boshqarishda to'g'ri bo'ladi?

a) Ikkala o'quvchini ham jazolab, ota-onalariga shikoyat qilish.

b) O'quvchilarning har birining fikrini tinch va xolis tinglab, ularni kelishuvga chaqirish.

c) O'quvchilarni boshqa sinflarga o'tkazish.

d) O'quvchilarning o'zaro munosabatini sudga topshirish.

2. O'quvchilardan ikki nafari darsdan so'ng sport zalda tortishib qolishdi. O'qituvchi ularni yoniga chaqirib, har birining fikrini tinglab, tinch muhitda gaplashib, ularni kelishishga undadi. Bu holatda o'qituvchi qaysi usuldan foydalangan?

A) Ishontirish

B) Iltimos

- C) Suhbat
- D) Talab qo'yish

3. O'qituvchi ikki o'quvchi o'rtasida yuzaga kelgan kelishmovchilikni ko'rib, ularga: "Iltimos, bu masalani yaxshi niyat bilan hal qilaylik, bir-biringizga imkon bering," dedi. O'qituvchi qanday usuldan foydalandi?

- A) Suhbat
- B) Iltimos
- C) Ishontirish
- D) Ogohlantirish

4. O'qituvchi ikki o'quvchi o'rtasida kelib chiqqan bahsdan so'ng, ularning har ikkalasiga bu tortishuvning sabablari va oqibatlarini tushuntirib, kelgusida bunday vaziyatdan qanday qochish mumkinligini dalillar bilan bayon etdi. O'qituvchi qanday usuldan foydalangan?

- A) Ishontirish
- B) Suhbat
- C) Jazolash
- D) Talab qo'yish

5. Ikki o'quvchi darsda bir-biriga xalaqit berib, nizoga sabab bo'ldi. O'qituvchi esa qat'iy ohangda ularning bu harakati dars intizomiga zid ekanligini, bu kabi xatti-harakatlarga yo'l qo'yimasligini aytib o'tdi. O'qituvchi qaysi usuldan foydalandi?

- A) Suhbat
- B) Ishontirish
- C) Tushuntirish
- D) Iltimos

6. Ikki o'qituvchi o'rtasidagi babs jiddiy tortishuvga aylandi. Muassasa rahbari ularga murosa izlashga vaqt bermay, darhol har ikki tomonning talablarini rad etdi va ularning fikrlarini hisobga olmay, nizoni kuchli bosim bilan to'xtatdi. Bu holatda qanday usul qo'llandi?

- A) Suhbat
- B) Kuch bilan bostirish
- C) Iltimos
- D) Ishontirish

7. Bir o'quvchi do'stlari bilan tez-tez janjallahib qolayotganini aytib, psixologga murojaat qildi. Psixolog esa uning holatini tinglab, qanday muomala qilish va nizo paytida o'zini qanday tutish bo'yicha foydali tavsiyalar berdi. Qaysi yordam turi ko'rsatildi?

- A) Tashxislash
- B) Maslahat berish
- C) Axborotli yordam
- D) Trening o'tkazish

pedagogik faoliyatda nizolar ham bo'lib turadi. Muassasada bir nechta xodimlar o'rtasida davomli nizolar kuzatilmogda edi. Direktor o'qtuvchilardan bittasini boshqa ishga ya'ni binoni ichidagi boshqa joyga, ikkinchisini esa yana qandaydir ish bilan band qildi, bu xodimlarning ish soatlarini, ish xonalarini va vazifalarini o'zgartirib, ularni bir-biridan uzoqlashtirdi.

Qaysi usul qo'llandi?

- A) Tinch yo'l bilan kelishish

- B) O'zaro ajratish
- C) Suhbat asosida hal qilish
- D) Ogohlantirish

O'qituvchi darsda doskaga do, mi, sol notalarini chizdi, so'ng pianinoda ularni sol, mi, do tarzida chalib berdi. O'quvchilar xatolikni darhol sezib, uni to'g'rilashdi. Ushbu holatda o'qituvchi qaysi metoddan foydalangan?

- A) Namoyish
- B) Loyiha
- C) Didaktik o'yin
- D) Hikoya

O'qituvchi darsda uchburchak va to'rtburchak shaklidagi qog'ozni qirqib, o'quvchilarga ularning xossalari amaliy ko'rsatib berdi va tushuntirdi. Ustoz qaysi o'qitish metodidan foydalandi?

- A) Tushuntirish
- B) Namoyish
- C) Amaliy
- D) Tasvir

Sinfdosh o'quvchilar o'zaro bahslashib, janjallahashdi. Bu holat dars jarayonini buzdi.

Pedagog nima qilishi kerak?

- a) Bahslashayotganlarni darhol darsdan chiqarib yuborish.
- b) Sinf oldida qattiq tanbeh berish.
- c) Tinchlikni tiklab, suhbatsiz jazo berish.
- d) Suhbat orqali har ikki tomonning fikrini inobatga olib, nizoni adolatli hal qilish.

O'quvchi darsda o'zini erkin tutib, dars mavzusiga aloqasiz savollar bermoqda. Bu holat darsni chalg'itmoqda.

Pedagogning eng maqbul yechimi qaysi?

- a) O'quvchini darsdan chetlashtirib, jazolash.
- b) O'quvchini suhbatsiz uyga yuborish.
- c) O'quvchining qiziqishini mavzu bilan bog'lab, suhbat orqali to'g'ri yo'naltirish.
- d) O'quvchini ogohlantirib, sinfdan chiqarib yuborish.

Ikki o'quvchi o'zaro tortishib, dars vaqtida janjallahashib qoldi. Pedagog vaziyatni o'nglash uchun tezkor chora ko'rishi kerak.

Qaysi yechim vaziyatni samarali boshqarishda to'g'ri bo'ladi?

- a) Ikkala o'quvchini ham jazolab, ota-onalariga shikoyat qilish.
- b) O'quvchilarning har birining fikrini tinch va xolis tinglab, ularni kelishuvga chaqirish.
- c) O'quvchilarni boshqa sinflarga o'tkazish.
- d) O'quvchilarning o'zaro munosabatini sudga topshirish.

O'quvchi darsda pedagog bergan topshiriqqa rozi bo'lmay, bahslashishga harakat qildi. Bu holat boshqa o'quvchilarning darsga bo'lgan e'tiborini pasaytira boshladi.

Pedagog qanday yechimni tanlashi eng maqsadga muvofiq bo'ladi?

- a) O'quvchini darhol darsdan chiqarib yuborish.
- b) O'quvchini boshqa o'quvchilar oldida tanqid qilish.
- c) O'quvchi bilan darsdan so'ng alohida suhbat o'tkazib, tushuntirish va ishontirish usulidan foydalanish.
- d) O'quvchining ota-onasini maktabga chaqirtirib, jazo choralarini ko'rish.

Pedagog har bir darsdan oldin dars vaqtini oqilona taqsimlab oladi. Darsning maqsadini aniq belgilaydi, unga mos shakl va usullarni tanlab oladi. Dars davomida o'quvchilarning faolligini oshirish uchun turli metodlardan foydalanishni rejalashtiradi. Shu orqali dars samaradorligini oshirishga intiladi.

Berilgan vaziyatda pedagogning qaysi zaruriy ko'nikmasi aks etgan?

- A) Zamonaviy axborot texnologiyalarini fanga singdirish.
- B) Dars vaqtini oqilona rejalashtirish, darsning maqsad, shakl va usullarni aniqlash**
- C) O'quvchilarning bilimini baholash natijasida olingan ma'lumotlarni inobatga olgan holda rejalarini muvofiqlashtirish.
- D) Fanlararo kompetensiyalarini fanga singdirish, o'z fanini boshqa fanlar bilan o'zaro bog'lash.

Dars jarayonida o'quvchilar faolligi oshadi, ular o'z qarashlarini erkin bildirishadi, o'zaro fikr almashadilar va mustaqil ravishda xulosalar chiqaradilar. Ustoz esa bu jarayonda ularga sharoit yaratib beradi va faoliyatni tartibga solib boradi.

Berilgan vaziyatda pedagog qaysi mehnat harakatini amalga oshirgan?

- A) O'quvchilarni darsga qiziqtirishda turli usullardan foydalanish.
- B) O'quvchilar darsda faol qatnashishini motivatsiyalashda ularning shaxsiy qiziqishlaridan foydalanish.
- C) Dars mavzusini amaliyot bilan (hayotdagi misollar yordamida) bog'lash.
- D) Dars davomida har bir o'quvchiga o'z g'oyalari va qarashlarini ifoda etish imkoniyatini berish**

Dars jarayonida ustoz o'quvchilarning faoliyatini diqqat bilan kuzatadi. Kimda qanday qiyinchiliklar yuzaga kelayotganini aniqlaydi va ularni belgilab boradi. Bu orqali keyingi darslarda zaruriy o'zgarishlar kiritishni rejalashtiradi. Berilgan vaziyatda pedagog qaysi mehnat harakatini amalga oshirgan?

- A) O'quvchilar ta'lim jarayonida to'qnashgan qiyinchiliklarini kuzatish va qayd etish**
- B) Ushbu sinfda dars beradigan hamkasblari bilan muayyan o'quvchining ta'lim olishdagi qiyinchiliklari to'g'risida maslahatlashish.
- C) O'quvchilarning yutuqlarini baholash orqali, ularni o'qishni davom ettirishga qiziqtirish.
- D) O'quvchining yutuqlarini baholash, baho asoslab berish.

Ustoz dars davomida va darsdan tashqarida o'quvchilar o'rtasida yuzaga kelgan qarama-qarshiliklarga befarq qaramaydi. U ular o'rtasida tushunmovchiliklarni bartaraf etishga harakat qiladi, sinfda hamkorlik va hurmat asosida muloqot qilish imkoniyatini yaratadi. Bu ustozning qaysi mehnat harakati turiga kiradi?

- A) O'quvchilarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini tashkil qilishda yordam berish va qo'llab-quvvatlash.

B) O‘zgaruvchan ko‘p madaniyatli muhitda o‘quvchilarda bag‘rikenglik, odob-axloq va hayotga tayyorgarlik bo‘yicha ko‘nikmalarni shakllantirish.

C) Ziddiyatlarni hal qilish, sinfda va undan tashqarida muloqot qilish uchun ijobjiy muhit yaratishda muloqot o‘tkazish

D) Bolalar bilan muloqot qilish, ularning qadr-qimmatini tan olish.

Ustoz o‘zining dars berish jarayonini diqqat bilan tahlil qiladi. Qaysi metodlari yaxshi natija bergenini, qaysi yo‘nalishlarda kamchiliklar **borligini aniqlaydi**. U kelgusida qanday ko‘nikmalarni rivojlantirish zarurligini belgilab, shunga mos reja tuzadi. Bu ustozning qaysi mehnat harakati turiga misol bo‘la oladi?

A) O‘zining ta’lim faoliyatini yetarlicha baholash va kasbiy rivojlanish ehtiyojlarini belgilay olish

B) O‘z tajribasini namoyish etish uchun ochiq darslarga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish.

C) O‘zining ish amaliyotida kerakli o‘zgarishlarni amalga oshirish.

D) O‘zining ta’lim faoliyatini tahlil qilish va baholash, modifikatsiyani talab qiladigan yo‘nalishlarni aniqlash

Muayyan o‘quvchining ta’lim olishdagi qiyinchiliklari to‘g‘risida tegishli soha mutaxassislari bilan maslahatlashish o‘qituvchi kasbiy kompetentligining qaysi sohasiga kiradi?

A) O‘quv jarayonini rejalshtirish

B) Ta’lim samaradorligini taminlash

C) O‘zlashtirishni baholash va qayta aloqani taqdim etish

D) Hamkasblar va ta’lim oluvchilarning ota-onalari bilan hamkorlik

O‘quvchidan aylana ichidagi yuzaning o‘lchamini aniqlashda ishlatiladigan asosiy matematik munosabatni aytib berish so‘radi. U to‘g‘ri aytib berdi.

O‘quvchi qaysi bosqichda faoliyat ko‘rsatdi?

A) Tushunish

B) Bilish

C) Qo’llash

D) Tahlil

O‘qituvchi shakl atrofini o‘lchash va uning ichki maydonini hisoblash o‘rtasidagi farqni so‘radi. O‘quvchi o‘z so‘zlari bilan har ikkisining mohiyatini tushuntirib berdi.

Bu holat qaysi bosqichni ko‘rsatadi?

A) Bilish

B) Tushunish

C) Qo’llash

D) Baholash

O'quvchi, shaklning chekkadan markazgacha bo'lgan masofasi orqali, berilgan formulaga mos ravishda, ichki o'lchamni mustaqil hisoblab chiqdi.

Bu vaziyatda qaysi bosqich aks etdi?

- A) Tahlil**
- B) Qo'llash**
- C) Baholash
- D) Bilish

Pifagor teoremasi formulasidan foydalanib, o'quvchi masalani formulaga qo'yib va yechib oldi. Bu holatda Blum taksonomiyasining qaysi bosqichi namoyon bo'lmoqda?

- A) Bilish**
- B) Tushunish**
- C) Qo'llash**
- D) Tahlil

O'qituvchi masala yechimida nechta va qanday turdag'i matematik munosabatlardan foydalanganini o'quvchidan aniqlab berishni so'radi. O'quvchi har birini tahlil qildi va bog'liqlikni tushuntirdi.

Qaysi bosqich namoyon bo'ldi?

- A) Tahlil**
- B) Sintez
- C) Tushunish
- D) Qo'llash

O'quvchidan doira ichidagi yuzani hisoblashning yangi, o'ziga xos va tezroq usulini taklif qilish so'raldi. O'quvchi ilgari o'rganilgan bilimlarga asoslanib o'z metodikasini yaratdi.

Bu holatda qaysi bosqich ishlatilgan?

- A) Sintez**
- B) Baholash
- C) Tushunish
- D) Qo'llash

O'qituvchi ikki xil usulda topilgan shakl yuzasi natijalarini ko'rsatdi va o'quvchidan qaysi usul ishonchliroq va tezroq ekanini aniqlab, o'z fikrini asoslashni so'radi.

O'quvchi qaysi bosqichda faoliyat ko'rsatdi?

- A) Qo'llash**
- B) Tahlil**
- C) Baholash**
- D) Tushunish

Matematika o'qituvchisi o'quvchilarga "To'g'ri burchakli uchburchakda 90° burchak bo'lishi haqida faktni aytib o'tdi. O'quvchilar bu faktni yod olishdi

Blum taksonomiyasining qaysi bosqichiga misol bo'ladi?

- A) Qo'llash
- B) Tahlil
- C) Bilish**
- D) Tushunish

O'qituvchi elektr zanjirining ishlashini sxema asosida tushuntirib, uning elementlarini chizmada ko'rsatib berdi.

Shunda pedagog qaysi ta'lim metodidan foydalandi?

- A) Tushuntirish
- B) Namoyish
- C) Amaliy
- D) Tasvir**

O'qituvchi to'g'ri burchakli uchburchakning katetlari va gipotenuzasi haqida ma'lumot berdi. O'quvchilar esa ushbu bilimlar asosida o'zlari mustaqil tarzda Pifagor teoremasini shakllantirib, undan xulosa chiqardilar. So'ngra o'qituvchi haqiqiy Pifagor teoremasini bayon etdi. O'quvchilar o'zlarining natijalari bilan haqiqiy teoremani taqqoslab, o'z xatolarini tahlil qildilar. Ushbu jarayon Blum taksonomiyasining qaysi bosqichiga mos keladi?

- A) Bilish
- B) Tushunish
- C) Qo'llash
- D) Yaratish**

Hozirgi zamон pedagogikasi va psixologiyasi "pedagogik mahorat" tushunchasiga turlicha izoh beradi. Jumladan, "**Pedagogik ensiklopediya**" da ta'rif quyidagicha izohlangan: "**O'z kasbining mohir ustasi bo'lgan, yuksak darajada madaniyatli, o'z fanini chuqur biladigan, yondosh fanlar sohalarini yaxshi tahlil eta oladigan, tarbiyalash va o'qitish uslubiyatini mukammal egallagan mutaxassis.**"

Ushbu ta'rifning mohiyatidan kelib chiqib, o'qituvchining pedagogik mahorati tushunchasini quyidagicha izohlash mumkin:

1. Madaniyatning yuqori darajasi, bilimdonlik va aql-zakovatning yuksak ko'rsatkichi.
2. O'z faniga doir bilimlarning mukammal sohibi.
3. Pedagogika va psixologiya kabi fanlar sohasidagi bilimlarni puxta egallaganligi, ulardan kasbiy faoliyatida foydalana olishi.
4. O'quv-tarbiyaviy ishlar metodikasini mukammal bilishi.

Pedagogik mahorat tizimi quyidagi o'zaro bir-biri bilan bog'liq bo'lgan asosiy komponentlardan iborat:

1. Pedagogik insonparvarlik talablariga bo'ysunishi.

2. Kasbga oid bilimlarni boshqa fanlar bilan aloqadorlikda mukammal bilish.
3. Pedagogik qobiliyatga ega bo'lish.
4. Pedagogik texnika sirlarini puxta egallash.

O'QITUVCHINING PEDAGOGIK TEXNIKASI — pedagogik faoliyatining tashkiliy shakli bo'lib, aql bilan tutib bo'lmaydigan, behad uzoq muddatli izlanishlar va azob-uqubatli kechinmalar, tinimsiz pedagogik faoliyat, o'qituvchining fahm-farosati, bilimi va mahorati bilan amalda oshiriladigan aql va moddiy mehnatining mahsulidir.

Davomi bor...

@metodik_tomchi kanali